

Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 12 764,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	12 764,2	110,5
G'uzor tumani	557,1	63,2
Dehqonobod tumani	134,2	107,2
Qamashi tumani	198,7	115,6
Qarshi tumani	814,3	128,7
Koson tumani	629,5	110,1
Kitob tumani	385,3	128,8
Mirishkor tumani	143,8	111,4
Muborak tumani	549,5	78,1
Nishon tumani	753,7	134,6
Kasbi tumani	173,7	121,8
Ko'kdala tumani	101,7	113,8
Chiroqchi tumani	542,3	112,6
Shahrisabz tumani	417,8	107,2
Yakkabog' tumani	338	102,8
Qarshi sh.	3 501,7	119,1
Shahrisabz sh.	416,4	114,5
Taqsimlanmaydigan hajm	3 106,5	113,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar- sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,6 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,8 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,6 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 133,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	652,6	427,3	1 050,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	122,4	118,3	121,1
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	7 279,6	1 076,2	687,9
<i>o'sish sur'ati, %</i>	145,3	167,8	150,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 590,6	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	118,9	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-sentabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 524,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,5 % ga kamayib, 27,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 44,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil etgan holda 5685,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,8 % ni yoki 3 554,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	3 524,4	5 685,6	3 554,2	109,3	111,5	110,3
G'uzor tumani	89,0	351,2	116,8	21,5	106,3	86,2
Dehqonobod tumani	5,7	36,3	92,2	137,6	94,7	111,5
Qamashi tumani	7,0	80,3	111,4	96,6	121,7	112,9
Qarshi tumani	318,7	391,6	104,0	155,5	112,9	128,4
Koson tumani	99,4	378,3	151,9	76,0	117,4	128,0
Kitob tumani	83,7	143,0	158,5	229,2	121,4	109,1
Mirishkor tumani	38,7	51,8	53,3	70,3	132,8	153,6
Muborak tumani	350,3	152,4	46,8	66,1	110,8	131,5
Nishon tumani	593,1	109,2	51,4	131,5	150,6	141,3
Kasbi tumani	27,8	90,1	55,7	194,1	130,7	93,4
Ko'kdala tumani	2,2	82,9	16,6	-	108,5	128,5
Chiroqchi tumani	198,7	150,3	193,3	149,6	116,9	87,3
Shahrisabz tumani	30,6	313,8	73,4	68,3	109,3	127,5
Yakkabog' tumani	10,4	214,6	113,1	20,4	113,7	127,7
Qarshi sh.	1 291,8	2 038,5	171,5	149,1	105,7	116,9
Shahrisabz sh.	106,2	229,4	80,8	121,1	117,4	99,9
Taqsimlanmaydigan hajm	271,2	871,9	1 963,5	139,5	115,3	110,0

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kitob tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 229,2 %), Kasbi tumani (194,1 %) va Yakkabog' tumanida (20,4 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nishon tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 150,6 %), Mirishkor tumani (132,7 %) va Muborak tumanida (110,8 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	G. Ziyatova 75 221-32-47 (7020)	180100, Qarshi shahri., Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy